

JAZOIR ARABIYZABON ADABIYOTIDA ROMANNAVISLIKNING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

E'zozaxon Saidkarimova

Tadqiqotchi, Toshkent, O'zbekiston,
eusmonxojayeva@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22054390>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr Jazoir adabiyotida roman janrining shakllanishi va tadrijiy taraqqiyotini belgilagan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy omillar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, romanlarda milliy o'zlikni anglash, mustamlakachilikka qarshi kurash va ozodlik g'oyalari, diniy-ma'naviy qadriyatlarining badiiy talqini tadqiq etiladi. Jazoir adiblarining milliy romanchilik an'analarini shakllantirish va rivojlantirishdagi ijodiy hissassi yoritilib, janr taraqqiyotining asosiy bosqichlari hamda o'ziga xos badiiy-estetik xususiyatlari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: *Jazoir, Fransiya, arabiyzabon adabiyot, "Janub shamoli", "Zaynab", siyosiy vaziyat, Tohir Vattor, "Zilzila", milliy-ozodlik urushi.*

Kirish qismi: XX asrda Jazoir adabiyotining badiiy-uslubiy tamoyillari sezilarli darajada rivojlanib, yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Mazkur jarayonga jazoirlik adiblarning xalqaro adabiy-madaniy aloqalari kengayishi, jahon xalqlari adabiyoti va madaniyati bilan yaqindan tanishishi, shuningdek, zamonaviy adabiy oqimlar hamda ilg'or ijodiy tajribalarni milliy adabiy an'analar bilan uyg'unlashtirib o'zlashtirishi muhim ta'sir ko'rsatdi.

Mazkur davrda Jazoir nasrida ilgari mavjud bo'lmagan yangi adabiy janrlar shakllandi va rivojlandi. Bu holat adabiy tilning yanada ravonlashuvi, moslashuvchanligi va badiiy imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qildi. Natijada yozuvchilar hayotiy tajribalarni yanada chuqurroq va rang-barangroq aks ettirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Nasr tilining tabiatan erkinroq bo'lishi hamda she'riy shaklga xos qat'iy qoidalarning unda mavjud emasligi sabab nasr ijodkorlari an'anaviy adabiy qoliplarning ta'siridan ancha erta xalos bo'lib, yangi ifoda vositalarini faol o'zlashtirdilar.

Roman mustaqil adabiy janr sifatida zamonaviy davrda shakllandi va G'arb hamda arab adabiyotida o'ziga xos badiiy shakl sifatida qaror topdi. Ba'zi olimlar roman janrining ildizlarini arab adabiy merosida ham ko'radilar. Ularning fikricha, Johiz, Ibn Muqaffa', Badi' az-Zamon Hamadoniy hamda Haririy asarlarida roman janriga xos ayrim badiiy unsurlar uchraydi. Boshqa tadqiqotchilar esa romanni G'arb adabiyotidan kirib kelgan yangi janr sifatida baholaydilar.

Asosiy qism: Jazoirlik adib Tohir Vattor arab romanchiligi haqida shunday fikr bildirgan: *"Roman aslida arab tiliga begona janr emas, biroq u arab adabiyotida yangi badiiy shakl hisoblanadi. Arablar uni kashf etdilar va o'zlashtirdilar. Xuddi Uyg'onish davrida mantiq va falsafani qabul qilganlari kabi romanni ham o'z adabiyotlariga singdirdilar".*

Adabiyotshunoslarning aksariyati Rifo'a Tahtoviyning "Parij haqida qisqacha bayon" ("تَلْخِصُ الْإِبْرِيْزِ فِي تَلْخِصِ بَارِيْس") asarini zamonaviy arab nasriy hikoyachiligining boshlanishi deb hisoblaydilar. Keyinchalik Jurjiy Zaydonning tarixiy romanlari hamda Muhammad Husayn Haykalning "Zaynab" ("زَيْنَب") romani arab romanchiligining shakllanishida muhim bosqich bo'ldi. Ayniqsa, "Zaynab" ko'plab tadqiqotchilar tomonidan zamonaviy arab romanining dastlabki namunasi sifatida e'tirof etiladi.

Jazoir adabiyotida roman yo'nalishiga yaqin ilk asar Muhammad ibn Ibrohimning 1849-yilda yozilgan "Sevgi va sog'inchdagi oshiqlar qissasi" ("حكاية العشاق في الحب و الاشتياق") hisoblanadi. Undan keyin syujetga ega bo'lgan sayohatnomalar maydonga keldi. "Parijga uch jazoirlik sayohati" ("ثلاث رحلات جزائرية إلى باريس") 1852, 1878 va 1902-yillar) asari shular jumlasidandir. Roman janrining nazariy va badiiy talablarini hali to'liq anglab yetilmagan bo'lsa-da, mazkur yo'nalishga mos keluvchi Ahmad Rizo Huhuning "Makka go'zali" ("غادة أم") (1947), Abdulmajid ash-Shofi'iyning "Badbaxt talaba" ("الطالب المنكوب") (1951), Nuriddin Bujadraning "Yong'in" ("الحريق") (1957) hamda Muhammad Mani'ning "Sevgi ovozi" ("صوت") (1967) asarlar yaratildi.

Biroq Jazoir romanining haqiqiy badiiy asosda shakllanishi va milliy romanchilikning boshlanish nuqtasi sifatida Abdulhamid Binhaduqqaning 1971-yilda nashr etilgan "Janub shamoli" ("ريح الجنوب") romani e'tirof etiladi. Shu sababli tadqiqotchilar aynan ushbu asarni Jazoir badiiy romanining asos soluvchi namunasi sifatida baholaydilar.

1970-yillar Jazoirda badiiy roman janrining to'laqonli shakllangan davri hisoblanadi. Muhammad Ar'arning "Shamollar olib ketolmagani" ("وما لا تذر الرياح") hamda Tohir Vattorning "Olovli so'qmoqlar", "Zilzila" ("زلزال") kabi romanlarning maydonga kelishi natijasida Jazoir adabiyotida yangi, badiiy jihatdan yetuk roman maktabi shakllangani haqida so'z yuritish imkoniyati tug'ildi.

Mustaqillikdan keyingi o'n yillik mamlakatda arab tilining erkin rivojlanishiga keng yo'l ochdi. Natijada yozuvchilar roman janriga murojaat qilib, jamiyat hayotining murakkab qatlamlarini, uning ijtimoiy voqeligini va turli ziddiyatlarini badiiy ifodalashga intildilar. Bu jarayonda ular bir tomondan milliy-ozodlik urushi davriga murojaat qilgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan yangi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni tasvirlashga e'tibor qaratdilar.

Xulosa qismi: Mazkur davr romanlarining asosiy xususiyatlaridan biri o'z oldiga mavzuni dadil qo'yish va badiiy tajribalarga jur'at bilan kirishishdir. Buning asosiy sababi mustaqillikdan keyingi siyosiy muhit yozuvchiga avvalgi mustamlaka davriga nisbatan ancha keng ijodiy erkinlik berganidadir. Shu bilan birga, ushbu davr romanlarida siyosiy ruhning ustuvorligi ularning badiiy qiymatini pasaytirmagan. Aksincha, bu asarlar tarix va zamonaviy voqelikni yangi badiiy til vositasida chuqur tahlil qilishi bilan ajralib turadi. Jazoirda roman janri XX asrning 70-yillarida rivojlangan bo'lib, ungacha esa roman janrini eslatuvchi unsurlari bo'lgan asarlar yaratilgan. Jazoir romannavislari mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni o'z asarlariga singdirish orqali mustaqillikdan keying Jazoirni barpo etish g'oyasiga hissalarini qo'shganlar.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. С.В.Прожегина. Магрибинки рассказывают. – Москва, 2020. – 468 с.
2. أحمد فريجات: أصوات ثقافية في المغرب العربي، الدار العالمية للطباعة و النشر و التوزيع، لبنان، ط 1، 1984م، ص 87.
3. منتديات المدرسة لجميع الطلاب منتديات المدرسة العليا للأساتذة تاريخ الأدب العربي الحديث والمعاصر في الجزائر، بوزريعة، 2012.
4. الرواية الجزائرية ومتغيرات الواقع: بشادية بن يحيى
5. علل سنقوقة: المتخيل و السلطة، ص 35.
6. محمد مصابف: الرواية العربية الجزائرية الحديثة بين الواقعية و الالتزام، الجزائر، د ط، 1983، ص 91.
7. مفقودة صالح: نشأة الرواية العربية في الجزائر (التأسيس و التأصيل)، مجلة المخبر العدد الثاني 2005، ص 15.